

INGLIZ TILINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI

Razbekova Zamira Lepesbaevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iroq tumani

Politexnikumi ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy va samarali pedagogik usullar tahlil qilinadi. Xususan, kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, differensial ta'lim, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish hamda o'yin texnologiyalari kabi yondashuvlarning afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, dialog roli o'yinlar, "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", "Zinama-zina", "Insert", "Klaster".

Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini bilish har bir shaxsning kasbiy raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omildir. Ta'lim tizimida ingliz tilini samarali o'rgatish uchun nafaqat yangi o'quv dasturlari, balki zamonaviy o'qitish metodlari ham zarur. Ushbu maqolada ingliz tilini o'rgatishda keng qo'llanilayotgan metodlar, ularning afzalliklari hamda amaliy qo'llanilishi yoritiladi.

Har tomonlama yetuk, yuqori salohiyatli, milliy istiqlol g'oyalariga sodiq, shu bilan birga, zamonaviy bilimlarni, kompyuter texnikasini puxta o'zlashtirgan va chet tilini mukammal biluvchi farzandlarni tarbiyalash – hozirgi davr talablaridan biridir. Zero, bugungi yoshlar bizning ertangi kunimizdir. Shu jihatdan bugungi kun o'qituvchilaridan juda katta mas'uliyat talab etiladi, shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda o'quvchi -talabalarni hayron qoldirish yoki qiziqtirish ancha mushkul vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tili o'qituvchilarining metodik tayyorgarligi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Fanni yaxshi bilish bilan bir qatorda, bugungi kunda ta'limga keng joriy qilinayotgan axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan o'qituvchigina o'z faoliyati davomida yuqori natijalarga erisha oladi.

Zamonaviy o'qituvchi o'z fanini chuqur bilish bilan birga ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, internetdan, kompyuter imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalana olishi lozim. Bu uchun albatta, har bir darsni qiziqarli o'tishi uchun multimedia vositalari, didaktik materiallar, ko'rgazmali qurollar orqali jonli, qiziqarli tashkil etish ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi. Aslida xorijiy tilni amaliy o'rganish deganda og'zaki nutqni rivojlantirish tushuniladi.

Aniqlanganidek, ingliz tili fanining asosini o'rganiluvchilarda nutq faoliyati ko'nikmalarini shakllanishida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, nutq faoliyati ham yozma, ham og'zaki shaklda bo'lishi mumkin. Faqatgina og'zaki nutqni o'zlashtirishni ham

amaliy bilish, deb bo'lmaydi. Amaliy o'zlashtirish jarayoni nutq faoliyatining barcha turlari o'zlashtirilishi bilan tavsiflanadi. Chet tilini o'rganayotgan talaba o'z fikrlarini aniq yetkazib bera olishi, ma'nolarni to'liq anglashi kerak. Tili o'rganilayotgan davlatning geografiyasi, adabiyoti, tarixini o'rganish ham tilni yanada mukammal egallashga turtki bo'ladi. Bu o'rinda multimedia vositalaridan foydalanib o'tilgan darsning ahamiyati kattadir. Bu bilan bir qatorda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, dars davomida zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanishda yuqori natijalarga erishiladi. Misol uchun, aqliy hujum va guruh bo'lib ishlash ish uslubiga katta ta'sir etadi. Bunda bilim oluvchilar mavzuni har tomonlama muhokama qilishadi tanqidiy fikrlar bildirishadi, bu esa o'z navbatida shaxsning savol berish, so'zlash, mantiqiy fikrlash qobiliyatini, munozara yuritish madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. Guruh bo'lib ishlash talabani guruhda ishlash, tanqidiy va mustaqil fikrlash, muloqot va hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashadi. Guruhiy ish usuli orqali yuqori darajada fikrlashga, mavzuni puxta o'zlashtirishga, guruh a'zolari orasida ijobiy va do'stona munosabatlarini o'rnatishga va o'z-o'zini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. E'tiborlisi, ingliz tilini o'rganishda leksikaning o'rni grammatikaga solishtirganda muhimroq. Aynan leksika fikrni to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi. Leksika, ya'ni so'zni tasavvur qilish imkonini beradi. Mutaxassislar hisobiga ko'ra, hozirgi kunda ingliz tilida 500 000 dan ortiq so'z borligi esa talaba o'z lug'at boyligini tinimsiz oshirib borishi kerakligini ko'rsatadi. Buning uchun darslarda og'zaki matnlar tinglanishi (Listening), talabalar o'rtasida o'zaro dialoglar, suhbatlar (Speaking) tashkil etilishi ingliz tili darslarining mazmunli va samarali bo'lishiga yordam beradi.

Amaliy mashg'ulotlar: dialoglar, rol o'yinlari, munozaralar, juftlikda ishlash. Interfaol ta'lim o'quvchini jarayonning markaziga qo'yadi. "Aqliy hujum", "Blits-so'rov", "Zinama-zina", "Insert", "Klaster" kabi metodlar orqali o'quvchi mustaqil fikrlashga va faol muloqotga jalb qilinadi.

Natijasi:

- so'z boyligi tez oshadi;
- grammatik bilimlarni qo'llash ko'nikmasi shakllanadi;
- dars jarayoni qiziqarli kechadi.

Ingliz tilini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar muhim o'rin tutmoqda. Foydalaniladigan vositalar:

- mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet, BBC Learning English)
- onlayn platformalar (Google Classroom, Kahoot, Quizizz)
- video va audio resurslar (YouTube, TED Talks)

O'yin texnologiyalari

Til o'rganish jarayoniga o'yin kiritish o'quvchini ruhlantiradi va tabiiy muhit yaratadi. Eng samarali o'yinlarga "Word Bingo", "Memory Game", "Who am I?", "Hot

seat” kabilarni misol qilamiz. Bu usul o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda eng samarali hisoblanadi.

Ta‘limni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish, ta‘lim samaradorligiga erishishda asosiy vosita vazifasini bajaradi. Shundan kelib chiqqan holda, ta‘limni zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish deganda, zamonaviy ta‘lim samaradorligi talab va maqsadiga erishishning o‘ziga xos shart-sharoitlari hamda shaxsning mustaqil ijodiy izlanuvchanlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayonlar natijasiga aytiladi. Bu esa talabadagi nutq faoliyati va mustaqil fikr yuritishni rivojlantirishga samarali ta‘sir qiladi.

Innovatsion texnologiyalar asosida chet tillarni o‘qitish talabalarga ularning kasbiy faoliyatlarini shakllanishida katta yordam beradi. Talabalar chet tillarni, shu jumladan ingliz, nemis, fransuz tillarini o‘z mutaxassisliklari bilan chambarchas bog‘liq holda turli xil TOEFL, IELTS, English for all kabi dasturlar, Internet aloqasi orqali o‘rganishlari mumkin. Internet orqali chet tillarni o‘qitish turli tillarda muloqot qiluvchi kishilarni uzviy aloqaga kirishuvidan tashqari, mamlakatlar, kishilarning turmush tarzi bilan ham yaqindan tanishish imkonini beradi. Bu o‘rinda tili o‘rganilayotgan mamlakat kishisi bilan muloqotga kirishish talabaga o‘z nutqiy fikrlarini chet tilida ifoda eta bilishida, xatolarini to‘g‘rilashda hamda yangi-yangi ma‘lum otlarni o‘zlashtirib olishida tubdan yordam beradi.

Xulosa qilib aytish kerakki, zamonaviy tilni o‘rgatish ko‘proq madaniyatli shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, u o‘z-o‘zini tahlil qilish va yangi bilimlarni tizimlashtirish ko‘nikmalariga ega ekan. Innovatsion usullar butun tizimni modernizatsiya qilishning ajralmas qismidir. Shunga amin holda o‘qituvchilar eng ilg‘or yondshuvlar bilan tanishishlari va keyinchalik ularni birlashtirishi va o‘z ishlarida foydalangan holda ta‘lim tizimida sezilarli o‘sishga erishish mumkin. Ko‘plab tashkilotlar axborotni jo‘natish va olish uchun multimedia imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi darajaga o‘tmoqda. Kompyuterlar va boshqa qurilmalardan foydalanish butun ta‘lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilaydi. Ta‘lim jarayonida o‘tkaziladigan treninglarda nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga va ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirishga yetarli e‘tibor berilishi kerak. Bundan tashqari ta‘limda har bir darsning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan mashg‘ulotni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir. Dars o‘qituvchi va o‘quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o‘quvchilar mustaqil erkin fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2016.
2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2017.